



## MILLIY G'OYA VA MILLIY MAFKURANING SOTSIAL MUNOSABAT TIZIMIDAGI O'RNI

*Saydiraximov Azizjon Rustam o'g'li*

*Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*“Sotsiologiya” yo'nalishi I-kurs talabasi*

**Annotatsiya (O'zbek tilida):** Ushbu maqolada milliy g'oya va milliy mafkuraning sotsial munosabatlar tizimidagi o'rni tahlil qilingan. Milliy g'oya va mafkuraning jamiyatni birlashtirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash hamda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, yosh avlod tarbiyasidagi roli va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri ilmiy asosda ochib berilgan.

**Аннотация (на русском языке):** В данной статье рассматривается роль национальной идеи и национальной идеологии в системе социальных отношений. Автор анализирует значение национальной идеи в объединении общества, обеспечении социальной стабильности и формировании духовных ценностей. Также раскрывается её влияние на воспитание молодого поколения и развитие общества.

**Annotation (in English):** This article analyzes the role of national idea and national ideology in the system of social relations. The importance of national idea in uniting society, ensuring social stability, and forming spiritual values is highlighted. The article also discusses its impact on the upbringing of the younger generation and the development of society.

### **Kirish**

Har bir jamiyatning barqaror rivojlanishi va taraqqiyoti uning ichki birligi, qadriyatlari va maqsadlariga bog'liq. Bu jarayonda milliy g'oya va milliy mafkura muhim ahamiyat kasb etadi. Ular jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi, umumiy yo'nalish va maqsad sari yetaklovchi asosiy omillardir. Inson jamiyatsiz yashay olmaydi, jamiyat esa insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar va munosabatlar orqali



mavjud bo'ladi. Shu jihatdan sotsial munosabatlar jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini shakllantiruvchi, unibir butun tizim sifatida birlashtiruvchi eng muhim omillaridan biridir.

## **Milliy g'oya va milliy mafkura tushunchasi**

Milliy g'oya — bu muayyan xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari, orzu-intilishlari va maqsadlarini ifodalovchi tushunchadir. Milliy mafkura esa milliy g'oyaning nazariy va amaliy ifodasi bo'lib, jamiyat rivojlanish yo'lini belgilaydi. G'oya tushunchasining mohiyati nimadan iborat? Inson o'zining ongi, aql zakovati, iymone'tiqodi va ijodiy mehnati bilan boshqa barcha tirik jonzotlardan farq qiladi. Inson tafakkuri voqeylikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar yaratadi.

## **Sotsial munosabat tizimi**

Sotsial munosabatlar tizimi — bu jamiyat a'zolari o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy va madaniy aloqalar yig'indisidir. Sotsial birdamlik tushunchasi sotsial munosabatlar tizimida muhim o'rin tutadi. Chunki birdamlik — bu, ko'pgina ma'naviy omillarning majmuasidan tashkil topgan sotsiologik kategoriya bo'lib, u ijtimoiy hayotda faoliyat ko'satayotgan insonlarning ijtimoiy taraqqiyot masalalarini hal qilishlaridagi hamkorligi ko'rinishidir.

## **Milliy g'oya va mafkuraning o'rni**

Milliy g'oya jamiyatni birlashtiradi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi, ma'naviy qadriyatlarni shakllantiradi, inson va jamiyat hayoti muayyan fikrlar, g'oyalar bilan uzviy bog'liq mafkura inson hamda jamiyat taraqqiyotida tarbiyasida muhim rol o'ynaydi hamda uzluksiz takomillashib, rivojlanib, davrlar o'tishi bilan o'zgarib boradi.

Ma'naviyat, qadriyatlar va milliy g'oya — jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o'zaro uzviy aloqadorlikda bo'lgan sohalaridir. Ma'naviyat, milliy qadriyatlar va istikdol g'oyalari alohida olingan har bir shaxs hayotida ham, jamiyatdagi turli guruh va qatlamlar faoliyatida ham, umuman insoniyat taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega. Millat va davlat taraqqiyotining ma'lum



davrlarida ma'naviyat va milliy g'oya eng dolzarb, hal qiluvchi omil bo'lib maydonga chiqadi.

## **Xulosa**

Milliy g'oya va milliy mafkura jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, uning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, inson, jamiyat taraqqiyotida g'oya va mafkuraning o'rni hamda ta'sirini o'rganish barcha davrlarda muhim ahamiyatga ega. Inson va jamiyat hayotida muhim o'zgarishlarni amalga oshirilishida muayyan g'oyalar alohida o'rin tutadi. Jamiyat taraqqiyotining ma'lum davrlarda tezlashuvi yoki sekinlashuvi, jamiyat hayotida ijobiy yoki salbiy holatlarning ro'y berishi jamiyatda qanday g'oyalar hukmronlik qilish, ular qanday kuchlarni harakatga keltirishi, kimlarning, ya'ni qaysi bir ijtimoiy qatlamning manfaatlariga xizmat qilishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". Toshkent, 2021.
3. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar". Toshkent, 2001.
4. [Vol. 4 No. 40 \(2025\): Новости образования: исследование в XXI веке](#)
5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz),
6. [www.gov.uz](http://www.gov.uz),